

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH  
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING**

# **TAFAKKUR VA TALQIN**

**mavzusida Respublika miqyosidagi  
ilmiy-amaliy anjuman to‘lami  
(II qism)**

**Buxoro 2022-yil, 23-may**

## **Tahrir hay'ati:**

<b>O.X.Xamidov</b>	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>R.G'.Jumayev</b>	Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent
<b>A.A. Turayev</b>	Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<b>D.R. Djurayev</b>	Fizika-matematika fanlari doktori, professor
<b>S.Q. Qaxxorov</b>	Pedagogika fanlari doktori, professor
<b>M.Y. Ergashov</b>	Kimyo fanlari nomzodi, professor
<b>S. Bo'riyev</b>	Biologiya fanlari doktori, professor
<b>B.N.Navro'z-zoda</b>	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>D.S. O'rayeva</b>	Filologiya fanlari doktori, professor
<b>T.H.Rasulov</b>	Fizika-matematika fanlari doktori, (DSc)
<b>SH.SH.Olimov</b>	Pedagogika fanlari doktori, professor
<b>A.R.Hamroyev</b>	Pedagogika fanlari doktori, (DSc)dotsent
<b>M.B.Ahmedova</b>	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent

## **Mas'ul muharrir:**

*A.A. Turayev – magistratura bo'limi boshlig'i f.-m.f.f.d., (PhD) dotsent*

## **Musahhih:**

*S.B.Shamsiddinova – bosh muharrir*

*T.Sh.Ergashev – dekan muovini*

*D.R.Rahmatova – magistratura bo'limi uslubshunosi*

*O.G'.To'rayev –birinchi bosqich tayanch doktorant*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-yanvardagi Oliy majlisga yo'llagan murojatnomasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020 yil 7- fevraldagi 56-F-son farmoyishiga hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 4-maydagi № 3/19-04/05-26 son xatiga*

*asosan ushbu Respublika ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi. To'plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar***

1. Hayitov J. Turkistonda yangi ekin navlarining tarqalishi va ulardagi o'zgarishlar (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Buxoro. Durdona, 2018. 2018. – B.6.

2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз (Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий мажлис тантаналарининг қўшма мажлисидаги нутқи). – Т.: Ўзбекистон; 2016. – Б.15.

3. Balashov N.N. Ovoshevodstvo. T.: 1982. C. 29.

4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sabzavotchilik>

## **“TEMUR TUZUKLARI”- YOSHLAR MANAVIY KAMOLOTINING MAFKURA MAYOG’I**

**A.A. Ergashev,**

*Jahon tarixi kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Temur tuzuklarining ”O'rta asrlardagi Turkiston xalqlariga xos bo'lgan asrlar osha sayqallanib kelayotgan ma'naviy-madaniy qadriyatlari va ularning ahamiyati, tarixiy jarayonlarda davlat boshqaruvi masalalaridagi inson omili, qadr-qimmati ,adolat masalalari asosiy mezon qilib olinganligi bayon qilinib, Amir Temurning yoshlik davridan toki vafotiga qadar yoritilgan qisqacha tarixi va bu yillar davomida mo'g'ullar bosqinining Turon o'lkasiga ma'naviy-siyosiy ta'siri va uning oqibatlari masalalarining qisqacha mazmuni yoritilgan.”Temur tuzuklari” o'z davri ma'naviy-huquqiy hayotining qonuniy ifodachisi ekanligi va uning barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati masalalari alohida ta'kidlanadi.

Bugungi kunda Amir Temur shaxsiga, u asos solgan saltanatning madaniy, ma'naviy, adabiy merosiga kun sayin qiziqish va e'tibor ortib bormoqda. Amir Temur jahon tamaddunida nafaqat qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki bunyodkorlik, ilm-ma'rifat homiysi, farovonlik uchun, ta'lim-tarbiya, xalqqa tinch mehnat sharoiti

yaratish, umuman xalq ma'naviyatining yuksalishi uchun kurashgan buyuk zot sifatida sharaflı nom qoldirgan shaxsdir. Bu inson hayot faoliyatining har bir jabhasida yuqoridagi omillar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Sohibqiron ta'sis etgan "Temur tuzuklari"da zikr qilingan har bir tuzuk yoshlarni, umuman, insonni ma'naviy komillikka, el-yurtga mehr-muhabbat, to'g'rilik, muruvvatlilik, qahramonlik va mardlikka chorlovchi odil va va asosli da'vat ekanligiga guvoh bo'lamiz. "Temur tuzuklari" da hukmdorning davlat siyosatini belgilashda va hayotga tatbiq etishda "Rosti-rusti"qoidasi asos qilib olinadi. Rosti-rusti qoidasi butun saltanat va undagi xalqlarning shior va maqsadiga aylandi. Ushbu mezon haqiqat-tartib, haqiqat-adolat ma'nosida bo'lib barcha ishda odamlar orasidagi munosabatlarda, umuman hayotda haqiqat qaror topishi, bu esa adolatning ,ya'ni odil jamiyatning tasdiq etilishini ta'minlashi lozim degan ma'noni bildiradi.

Buyuk hukmdor Temur "rosti-rusti" g'oyasini o'z tajribasida takomillashtirib va uni yanada sayqallab "Adolat kuchda emas, kuch-adolatdadir" degan mashhur qoidaga asos soldi. U o'zining "Temur tuzuklari" asarini shu qoida asosida yaratdi va umrining oxirigacha o'z faoliyatida shu qoidaga amal qildi.

"Tuzuklar", "Temur tuzuklari" nomi bilan dunyoga mashhur mazkur qo'lyozma asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda jahon tarixida mashhur fotih, sarkarda va iste'dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar kechgan hayoti va faoliyati, harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan. Tuzukning ikkinchi qismi Jahongirning nomidan aytilgan va uning taxt-u-toji vorislariga qaratilgan o'ziga xos vasiyat va pand-nasihatlardan tarkib topgan. Asarda Sohibqiron o'z farzandlari, nabiralari orqali yo'l-yo'riqlarini, o'z hayotida shior va maqsad qilib olgan o'n ikki qoidasi yordamida saltanat taxtiga zeb-ziynat berganligini va kelajak avlodlarni ham shu o'n ikki tuzukka amal qilishlarini ta'kidlab o'tadi. Ushbu tuzuklarning har birini ko'rib, tahlil qiladigan bo'lsak unda to'g'rilik, muruvvatlilik, el-yurtga mehr-muhabbat, mardlik, qahramonlik haqidagi fikrlarni ko'rishimiz mumkin. Amir

Temur faoliyatidagi ma'naviy omillarga e'tibor bersak ,uning zolimlarga qarshi kurashganligi ,doimo o'z davlat fuqarolarining boy bo'lishi uchun barcha samarali va adolatli choralarni ko'rganligi , yurtni tashqi tajovuzlardan va ichki fasotdan saqlaganligi ,mamlakat rivoji uchun ilm-u fanni va ta'lim –tarbiyani yuksaltirganligi, xalqaro do'stlik munosabatlarini yaxshi yo'lga qo'yganligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz.

Shuningdek, Sohibqiron birinchi tuzukda har yerda har vaqt islom dinini quvvatlaganligini bayon qiladi.Buning dalili sifatida uning o'gitlarida ham shu fikrni ko'ramiz.”Saltanat qonun-qoidalarini islom dini va kishilarning eng xayrlisi (Hazrati Muhammad) ning shariatiga bog'lab izzat-u hurmatlash vojib bo'lgan onhazratning avlodi va sahobalariga muhabbat bildirgan holda ularni mustahkamladim,saltanatim martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki ,saltanatim ishlariga aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi.” Bundan ko'rinadiki Amir temur islom dinini qo'llab quvvatlab ,unga nisbatan imonli bo'lgan inson ,albatta,xayrli ishlarga qo'l urishini ,shuningdek,o'zi yashagan davrdagi diniy vaziyatni anglab ,undan o'z siyosatining axloqiy-g'oyaviy omili sifatida oqilona foydalanganligi rad etib bo'lmas dalildir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Temur siyosatshunoslik va davlatchilik falsafasi tarixida yangi dunyoqarashga asos soldi, uni amalda tatbiq etdi. Bu mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minladi. U vazir, amir, savdogar, oddiy fuqaro, hatto shahzodalar ham qonun oldida barcha qatori teng javob bergan. Hech kim xizmatiga yarasha taqdirlanmay, yoki qilmishiga yarasha jazoga tortilmasdan qolmagan. Masalan, shahzoda Mironshoh maishat va ichkilikbozlikka berilib ketganligi uchun Temur uni jazoga tortdi va mansabidan chetlashtirdi. Samarqandda bo'lgan Kastiliya qiroli Genrix III ning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning guvohlik berishicha, Amir Temurning bo'yrug'i bilan Samarqand Chorusida, katta yig'in oldida, mansabini suiste'mol qilgan ikki vazir, shuningdek, molini ortiq baho qo'yib sotgan qassob bilan kosib jazolanganlar<sup>112</sup>.

---

<sup>112</sup> Руи Гонзалес де Клавихо.История Великого Тамерлана // Тамерлан. М., «Наука», 1992.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov haqli ravishda ta'kidlaganidek, «Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir, degan shior amir Temur saltanatining barcha xududlarida birday amal qilib, axloqiy-ma'naviy mezonga aylandi»<sup>113</sup>.

Amir Temur davlat ishlarini boshqarishda ilm-fan, madaniyat va ma'rifat ahlining maslahatiga tayangan yirik davlat arbobi sifatida ham mashhurdir. U «Tuzuklar»ida mana bunday deydi: «Davlat ishlarini to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat bilan, qolgan bir ulushi qilich vositasi bilan bajarilishini angladim»<sup>114</sup> deya ta'kidlab hukmdorning boshqaruv va davlat, shuningdek tarbiya ishlarida qanchalik mushohada bilan ish yuritganligini namoyon qiladi. Bunday omillar o'z navbatida kelajak avlod tarbiyasiga oqilona va ijobiy ta'sir ko'rsatganidan dalolat beradi. Buning natijasi uning nabirasi Mirzo Ulug'bek davrida yaqqol namoyon bo'ladi.

### **Adabiyotlar**

1. Руи Гонзалес де Клавихо. История Великого Тамерлана // Тамерлан. М., «Наука», 1992.
2. Karimov I. A. Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir// Yangicha ishlash va yashash davr talabi. –T.: O'zbekiston, 1997, -T. 5. –B. 168.
3. Temur tuzuklari. T., «G'afur G'ulom» nashriyoti, 1993. 31-bet

---

<sup>113</sup> Karimov I. A. Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir// Yangicha ishlash va yashash davr talabi. –T.: O'zbekiston, 1997, -T. 5. –B. 168.

<sup>114</sup> Temur tuzuklari. T., «G'afur G'ulom» nashriyoti, 1993. 31-bet

	<i>shakllanishi.....</i>
<b>A.M. Abduzokirov</b>	<i>AQSh va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik aloqalari tarixi (1991-2021 yy).....51</i>
<b>O.U.Davronov</b>	<i>Janubiy Koreya Respublikasi va O'zbekiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tahlili.....58</i>
<b>Sh.Q.Ismoilov</b>	<i>Qirg'izistondagi o'zbeklar: tarixiy tahlil.....61</i>
<b>D.T.Jabborova</b>	<i>O'zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik borasida Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan aloqasi.....64.</i>
<b>R.R.Raxmatov</b>	<i>Buxoro va Sibir xonligi savdo-iqtisodiy munosabatlardagi asosiy mahsulotlar.....68</i>
<b>M.M.Qurbanov</b>	<i>Antifashistik koalitsiyaning tashkil topishi.....73</i>
<b>M.M.Yo'ldoshev, M.B. Qurbonova.</b>	<i>“Avesto”da dehqonchilik an'analari.....80</i>
<b>R.N.Tursunov, X.X.Nishonova,</b>	<i>Yevropa ittifoqining Germaniya tashqi siyosatida tutgan o'rnini.....84</i>
<b>U.U.Odinayeva</b>	<i>O'rta asr g'arbiy Yevropasi shaharlari vujudga kelishi va ijtimoiy –iqtisodiy tavsifiga doir .....87</i>
<b>U.F.Xayrullayev</b>	<i>Tarix fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatini oshirishda hamkorlik strategiyalariga asoslangan darslarni tashkil etishning amaliy ahamiyati.....92</i>
<b>S.Zaripova</b>	<i>Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligi.....97</i>
<b>A.A.Gulyamov</b>	<i>Buyuk ipak yo'li – turizmni rivojlantirish omili.....100</i>
<b>J.Sh.Haitov</b>	<i>O'zbekistonda sabzavot ekin yangi navlarining tarqalishi tarixi.....106</i>
<b>A.A. Ergashev</b>	<i>“Temur tuzuklari”- yoshlar ma'naviy kamolotining mafkura mayog'i.....109</i>